

CHO‘LPON SHE‘RIYATIDA LEKSIK TAKROR

Usmonova Mashhura Zafarjon qizi

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti,
Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati instituti talabasi
E-mail: mashhurausmonova777@gmail.com*

Annotatsiya. *Badiiy asarda ijodkor o‘z individual qarashlarini ochib berish uchun turli xil o‘xshatishlar, til umsurlaridan foydalanadi. Shoir Abdulhamid Cho‘lpon ijodini o‘rganish davomida xalqona ruh bilan birga tarixiylik, milliy g‘urur yetakchi o‘rinni egallaganining guvohi bo‘lamiz. Mazkur maqolada Cho‘lpon she‘riyatida qo‘llanilgan leksik takrorlar va ularning shoir adabiy merosida tutgan o‘rni misollar asosida tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *Takror, Mukarrar, Epifora, Takrir, Anafora, Tasdir, Tasbe, Tardi aks, Rad-ul-matla, Assonans, lafziy san‘at, an‘ana.*

Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon o‘zbek she‘riyatining yo‘lchi yulduzi. Shoir lirikasi rang-barangligi, nozikligi va jozibasi bilan she‘rsevarlar qalbidan o‘ziga xos o‘rin egallagan. Ijodkor adabiy merosining mundarijasida vatanparvarlik, ilm-u ma‘rifat, ozodlik va hurlik ruhi bilan sug‘orilgan she‘rlari ahamiyatlidir. Adabiyotshunosligimizda va tilshunosligimizda Cho‘lpon she‘riyatining g‘oyaviy-badiiy va lingvistik xususiyatlari yuzasidan qator tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Shoirning badiiy mahorati shundaki, lirik qahramon tabiatini ochib berishda obrazlilikni ta‘minlovchi she‘riy san‘atlardan unumli foydalanadi. Xususan, badiiy takrorlar shoir she‘rlarining ta‘sir kuchini yanada oshirishga xizmat qiladi. She‘riyat tilidagi takrorlar she‘r tuzilishi mezonlarini belgilash imkonini beradigan vositalardan biridir. San‘atlarning ichida so‘zning takroriga asoslangan san‘atlar aynan so‘zning shakliy jihatiga bog‘liq. Ularga: takrir, mukarrar, tardi aks, rad, rad-ul-matla, anaphora, epifora, assonans, tasbe, tasdir kabilari kiradi. Ular baytning muayyan bir o‘rnida kelib, misralar oxirida, boshida, yoki o‘rtasida takrorga tayanib shakllandi. Atoullah Husayniyning “Badoyi‘u-s-sanoyi” asarida ma‘naviy go‘zal san‘at sifatida “takrir” (“takror”) haqida qimmatli fikrlar bayon qilingan. Takrori ikki turga ajratgan olim yozadi: “Birinchi turli uldirkim, lafz aynan takrorlanur ... Ikkinchi turli uldurkim, lafz emas, ma‘no takrorlanur va ma‘noning takrori umumiysidin so‘ng xususiying zikridin iborat bo‘lmog‘i mumkin”. Anglashiladiki, takror ma‘noni kuchaytirish, ta‘kidlash, estetik ta‘sirchanlikni oshirish, fikr qamrovini kengaytirish, shoir maqsadini konkretlashtirish singari maqsadlarga xizmat qiladi. She‘rda so‘zlarning qaysi o‘rinda takrorlanishiga ko‘ra olimlar ularni: mukarrar, takrir, anafora, epifora kabi turlarga ajratadilar. Adabiyotshunos

olim T. Boboyev badiiy takrorlarni fonetik, leksik, morfologik, sintaktik takrorlar tarzida muayyan tizimda tasnif qilib o‘rganish mumkin deb hisoblaydi. U anaforani leksik takrorlar sinfiga kiritadi [2,431]

Takrir (arabcha- تَقْرِير) “takrorlash” ma’nosini ifodalovchi lafziy san’at bo‘lib, she’rda u yoki bu so‘zni takror qo‘llashni nazarda tutadi. Takrorlash ma’nosida so‘z ma’nosini, uning mohiyatini ta’kidlab ko‘rsatish ushbu san’atning asosiy xususiyati sanaladi. [3.20] Chunonchi, Cho‘lponning “Xalq” she’ridagi:

Xalq dengizdir, xalq to‘lqindir, xalq kuchdir,

Xalq isyondir, xalq olovdir, xalq o‘chdir...

Xalq qo‘zg‘alsa kuch yo‘qdirkim, to‘xtatsin,

Quvvat yo‘qkim, xalq istagin yo‘q etsin. [1.23]

har bir misra boshida “xalq” so‘zining takrorlanishi, aynan, xalqning uyg‘onishiga, uning yengilmasligiga ta’kid bo‘lib kelmoqda. Bundan tashqari, “Ket”, “Ulug‘ Britaniyaning bu kungi hokimiyatiga”, “To‘fon” kabi bir qator she’rlarida ham aynan takrir badiiy san’atining go‘zal namunalarini uchratishimiz mumkin.

Mukarrar (arabcha – مُكَرَّر) “takror-takror”, “qayta-qayta”. Muayyan so‘z muayyan o‘rinda takrorlanib keladi. Takrirdan farqli ravishda mukarrar so‘zlar orasiga chiziqcha qo‘yiladi va takror so‘zning ikkinchisi nutqdagi „xo‘p, juda, rosa“ kabi kuchaytiruvchi so‘z vazifasini bajaradi. [4] Har bir baytda juft so‘zlarning qo‘llanishin mukarrarga xos xususiyat. Quyidagi satrlarda ko‘rishimiz mumkin:

Tabiatning o‘tini yo‘q o‘tida,

Sharaq-sharaq qaynab chiqqan buloqlar

Har qorong‘I, qo‘rqich tunning betida

Shifo istab kelmasin der, qo‘noqlar. [1, 29]

Cho‘lponning yana bir qator: “O‘tli suv”, “Nimaning hidi”, “Raqamlizmsevgi”, “Qushning hadigi”, “Buloqlar quchog‘ida”, “Zarafshon”, “Suygan choqlarda”, “Katta yo‘l bo‘yida uchragan yaproq uchun” kabi bir qator she’rlarida ham ma’no kuchayishi aynan leksik takrorlarga tayangan holda kelmoqda:

Qora bulut ko‘zlaridan ko‘p choqlar,

Hovuch-hovuch yangi kuchlar oladir.

Ey tinch yerda kular ko‘zli o‘ynoqlar,

Sizga yolg‘zi qovog‘ini soladir. [1, 47]

Aslida mukarrar san’ati g‘azalning matlasida ishlatilgan juft so‘zning ta’siri butun boshli g‘azalda ifodalanishidir. Buni Rashidi Fatvo (“Badoye ul-sanoyi” asraida) aytib o‘tadi.

Tasdir (arabcha- تصدير) baytda boshlangan so‘z, uning oxirida ham takrorlanadi. Bu holat sadr (boshi) va ajuzda (oxiri) ifodalanadi. Sadrlar tuzilishiga ko‘ra ikkiga (qancha so‘z bilan ifodalanishiga ko‘ra) bo‘linadi.

1. Sodda tasdirilar
2. Murakkab tasdirilar

Sodda tasdirilarga birgina so‘z asos bo‘ladi. Murakkab tasdirilarga esa undan ortiq so‘zlar. Misol uchun, shoirning “Katta yo‘l bo‘yida uchragan yaproq uchun” she‘rida sodda tasdirilarning guvohi bo‘lamiz:

Yaproq, yaproq... butoqlarda,
Qaltiragan varam yaproq.
Yuzlaringni so‘ng choqlarda,
Butun bosib ketgan tuproq. [1.112]

Tasbe (arabcha- تسبيح) bu san‘at tasdirga tamoman teskari, baytdagi misra oxiridagi so‘z, keying misraning boshida ifodalanishi. Birinchi misraning oxiridagi so‘z, ikkinchi misraning boshida kelib izohlanishi, zidlanishi yoki biror predmetga o‘xshatilishi, qiyosan tahlil qilinishi mumkin. Quyida ko‘ramiz:

Nagasaki limanidan jildi paraxod.
Paraxod emas, balki ulkan bir flot!
Vampu daryo suvlarini qopladi to‘lqin.
Sizinvaning havosini zaharlik tutun. [1.159]

“Bir lavha” she‘rining ilk qatorlaridayoq tasbe‘ san‘ati asosida paraxodning ulkan flotga o‘xshatilishi natijasida ma‘no kuchayishiga sabab bo‘lmoqda.

Tardi aks (arabcha- عكس طرد) tardning ma‘nosi “qaytarib berish”, “uzoqlashtirish”, aks esa “zid”, “teskari” ma‘nolarini beradi. Bu san‘atda takrorlanuvchi so‘zning o‘rni qat‘iy emas. Takrorlanuvchi so‘z ikkidan ortiq, o‘rni almashib, takror holatda keladi:

Kuz chog‘i... tuproqlar gezarib qoldilar,
Gezarib qoldilar kuz chog‘i tuproqlar.
So‘ng damda yaproqlar qizorib yondilar,
Qizorib yondilar so‘ng damda yaproqlar. [1.97]

Yuqoridagi to‘rtlikdan ma‘lum bo‘lib turibdiki, tardi aks natijasida so‘z o‘yini, shu bilan birgalikda shoirning qanchalik darajada so‘zdan unumli foydalangan holda ma‘noni kitobxon qalbiga yetkazishi, uning ijodiy salohiyatini belgilab turibdi. Takrorlangan so‘zlar har bir takrorda yana qayta yangi ma‘no yetkazish vazifasini o‘tamoqda.

Rad-ul-matla (arabcha- المطلع ردُّ matla‘ning qaytarilishi) – g‘azal matla‘dagi (qasida boshidagi) bosh misraning g‘azal maqta‘ning (qasidaning so‘nggi misrasi) o‘rnida muayyan maqsad bilan takrorlanishi. She‘rshunos Doyi Javodning fikricha, radd ul-matla‘ san‘atida

g‘azal (qasida) boshidagi misraning uning maqta‘da takrorlanishidir. She‘rshunos va shoir Shayx Ahmad Tarozining aytishicha, “Bu san‘at aningtek bo‘lurkim, she‘r matla‘ning avvalgi misrasini tamom maqta‘da radd qilular”. Adabiyotshunos Y. Is‘hoqovning aytishicha, mazkur san‘atning nomida shartlilik bor — u asosan, matla‘ning qaytarilishi, takrorlanishi deb yuritilsa-da, aslida matla‘ning bir misrasigina takrorlanadi. [2. 367]

Ushbu san‘atning yorqin namunasi adibning “Istash” she‘rida o‘z ifodasini topganligini ko‘rishimiz mumkin:

Ko‘nglingga yaqin narsani izlab kecha-kunduz

Har yoqqa qarayman.

Tong vaqtida nur to‘kkuvchi yolg‘izgina yulduz

Aytarki: “U menman!”

Ko‘nglingga yaqin narsani izlab kecha-kunduz

Oy-yillarim o‘tdi... [1.106]

Yaqin o‘tmishdagi asarlarda yuqoridagi takrorlar boshqacha ko‘rinishda, boshqacha nom bilan ham uchray boshladi. Bularga: anafora, assonas, epifora misol bo‘la oladi.

Anafora (yunon tilidan “anaphora – oldinga, yuqoriga chiqarish, takrorlash”) -she‘riy misralarning yoki nasriy gaplarning boshida bir xil so‘z va iboralarning, tovushlarning aynan takrorlanib kelishi. [5.6] Ba‘zi manbalarda boshlang‘ich so‘z takrori deb ham yuritiladi. Boshlang‘ich so‘z takrori so‘zlovchining hayajoni va diqqati qaratilgan tushunchani ko‘rsatadi va ifodalilikni oshiradi, parallelizmni mustahkamlaydi. Cho‘lponning “Buzilgan o‘lkaga”, “To‘fon”, “Qizarish”, “Ko‘klam qayg‘usi”, “Ket” kabi bir qator she‘rlari shular jumlasidandir.

Nima uchun ko‘zlaringda tutashguvchi olov yo‘q?

Nima uchun tunlaringda bo‘rilarning qorni to‘q?

Nima uchun g‘azabingni uyg‘otmaydi og‘u — o‘q?

Nima uchun borlig‘ingda bu daraja buzg‘unlik? [1.29]

Assonans (lotincha “hamohang”) - she‘riyatda ohangdorlikni oshirish uchun satr yoki misralarda unli tovushlarning takrorlanishiga asoslangan badiiy tasvir usuli. Badiiy nutqda ohangdorlik va tasvirlash bo‘yoqni oshirish maqsadida qo‘llanadigan fonetik usul. Unlilarning takror holatda kelishi, adabiyotda o‘zgacha ohangdoshlikni hosil qiladi. Bu esa musiqiylikini yuqori darajada oshiradi. Assonans – «tovushlar ohangdoshligi» yoki «noto‘la qofiya» (faqat urg‘uli unlilar o‘xshashligi) sifatida ham ta‘riflanadi:

Uyalmasdan, tortinmasdan har kishining yonig‘a,

O‘ynab kelgan, kulib kelgan, ey gunohsiz yosh bola!

Senga hali juda uzoq kirmak odam sonig‘a,

Shuning uchun sira tinmay sevinchingni qurala! [1.85]

(Bu yerda 'a', 'o', 'i' unlilarining ko‘p takrorlanishi she’rni yanada jozibali qilmoqda, she’rxonni esa zavqlantirmoqda).

Epifora (yunoncha: ἐπιφορά - epiphora - "qo‘shimcha", "ustiga keltirilgan)- she’riy asarning misralari oxirida tovushlar, so‘zlar, iboralarning aynan takrorlanib kelishi hodisasidir. Bu san’at she’rga ko‘proq hissiyotlik yuklaydi. Jumlaning takrorlanishi eksprissivlikni oshiradi. Muallifning “Ulug‘ yo‘lovchiga”, “Ketding”, “Aldanish”, “Sezmadim” kabi she’rlarida ham epiforaning namunalari mavjud:

Boqchalarda so‘ldi gullar, so‘ldi gular, sezmadim,

Qip-qizarib, botdi kunlar, botdi kunlar, sezmadim.

Qayda qoldi qonli kunlar, qonlimkunlar, sezmadim,

Sochlaring bog‘lab olib, bog‘lab olibdir sezgini! [1.90]

Ko‘rinib turibdiki, shoir aynan sezmadim so‘zi bilan lirik qahramonining afsusini, dil og‘rig‘ini ifodalamoqda.

Xulosa qilib aytganda, badiiy san’atlar adabiy asarning ta’sirchanligi va mazmunini yanada boyitishda muhim o‘rin tutadi. Ular orqali shoir o‘z fikrini emotsional va ifodali tarzda yetkazadi, tasvirni kuchaytiradi hamda o‘quvchiga chuqur badiiy taassurot qoldiradi. Ayniqsa, takrorga asoslangan san’atlar asardagi g‘oyani ta’kidlash va ma’noni yanada ravshan ko‘rsatishga xizmat qiladi. Shu bois badiiy san’atlar nafaqat asarning go‘zalligini oshiradi, balki kitobxonning estetik zavqini boyitib, unga ma’naviy ozuqa beradi. Bunday san’atlardan mahorat bilan foydalangan shoirni haqiqiy san’atkor deb atash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Cho‘lpon. Ko‘klam ruhi. -Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2019. -176 b.
2. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Т.: Ўзбекистон, 2002.
3. Manba <https://tafakkur.net/xalq/abdulhamid-cholpon.uz>
4. Tursunov J. Badiiy- tasviriy vositalar. – Andijon, 2018.
5. Hojiahmedov A. She’r san’atlarini bilasizmi?. -T.: Sharq, 2001.
6. Islamova, D., & Jalilova, M. (2021). Some comments on Uzbek folk proverbs. ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH, 10(5), 410-414. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=t18kgDYAAAJ&citation_for_view=t18kgDYAAAJ:roLk4NBRz8UC
7. Islamova, D. (2020). The occurrence of transposition in a poetic text (on the example of Usman Azim's poetry). ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 10(11), 2300-2306. https://scholar.google.com/scholar?cluster=11216753739127538709&hl=ru&as_sdt=2005